



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA FONETIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH MODELI VA MAZAMUNI

Zilolaxon Kenjayeva Saminjon qizi

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

+998933933435

Zililakenjayeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida fonetik kompetensiyani zamon talablari asosida shakllantirish zaruriyati asoslab berilgan. Amaldagi o'qitish jarayonida mavjud metodik kamchiliklar — an'anaviy mashg'ulotlarning takroriyliigi, individual yondashuvning yetishmasligi hamda metodik vositalarning cheklanganligi — fonetik ko'nikmalarni rivojlantirish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani ta'kidlanadi. Shu bois maqolada fonetik kompetensiyani shakllantirishning bosqichma-bosqich modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: fonetik kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, metodik model, fonemik idrok, talaffuz, intonatsiya, integratsiya, bosqichma-bosqich yondashuv

Аннотация: В данной статье обоснована необходимость формирования фонетической компетенции у учащихся начальных классов в соответствии с современными требованиями. Отмечается, что существующие методические проблемы — повторяемость традиционных занятий, недостаток индивидуального подхода и ограниченность методических средств — снижают эффективность развития фонетических навыков.

Ключевые слова: фонетическая компетенция, начальное образование, методическая модель, фонемическое восприятие, произношение, интонация, интеграция, поэтапный подход

Abstract: This article substantiates the necessity of developing phonetic competence among primary school students in accordance with modern educational requirements. It emphasizes that current teaching practices—such as repetitive traditional lessons, lack of individual approach, and limited methodological tools—do not fully ensure the effective development of phonetic skills. Therefore, a step-by-step model for forming phonetic competence is proposed.

Keywords: phonetic competence, primary education, methodological model, phonemik perception, pronunciation, intonation, integration, step-by-step approach

KIRISH

Model ishlab chiqishning zarurati, avvalo, metodik jarayonni yagona konsepsiya asosida tashkil etishga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilanadi. Chunki fonetik mashqlar faqat alohida topshiriqlar yig'indisi sifatida emas, balki yaxlit pedagogik tizimning tarkibiy qismi sifatida qaralishi kerak. Bunday tizimda fonetik ko'nikmalarni shakllantirishning maqsadli, mazmuniy, texnologik va natijaviy komponentlari uzviy bog'langan holda faoliyat yuritadi. Shuningdek, model metodik jarayonning bosqichlarini aniq ifodalash imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Respublikamiz olimlari – Z.A. Axmadov, R.X. Jo‘rayev, M.R. Ortiqova kabi tadqiqotchilar o‘z ishlarida fonetik kompetensiyani shakllantirishdagi mavjud muammolarga to‘xtalib, an‘anaviy yondashuvlarning ko‘pincha takroriy mashqlar va qiziqarsizlik bilan cheklanib qolayotganini ta‘kidlaydilar. Ularning fikriga ko‘ra, fonetik mashg‘ulotlarni zamonaviy metodik model asosida tashkil etish, ya‘ni bosqichlilik, tizimlilik, integratsiya va individual yondashuv tamoyillari asosida yo‘lga qo‘yish zarur.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fonetik kompetensiyani zamon talablari asosida shakllantirish zaruriyati bilan amaldagi o‘qitish imkoniyatlari orasida muayyan nomutanosiblik jihatlari mavjud. An‘anaviy mashg‘ulotlarning takroriyliigi, individual yondashuv yetishmasligi va metodik vositalarning cheklanganligi fonetik ko‘nikmalarni rivojlantirishda to‘liq samara bermayotganini ko‘rsatmoqda. Shu sababli, yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish uchun samarali fonetik kompetensiyani shakllantirish modelini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish zaruriyati o‘z-o‘zidan ayon bo‘ladi

Boshlang‘ich bosqichda o‘quvchilar tovushlarni eshitish va farqlash mashqlarini bajaradilar, keyingi bosqichda bo‘g‘in va so‘zlar ustida ishlash orqali fonemik idrokni rivojlantiradilar, undan so‘ng gap darajasida talaffuz va intonatsiyani shakllantiradilar, yakunda esa ijodiy topshiriqlar orqali fonetik ko‘nikmalarni hayotiy nutqiy vaziyatlarda qo‘llaydilar. Shunday qilib, bosqichma-bosqich tashkil etilgan mashqlar fonetik kompetensiyaning barqaror shakllanishiga olib keladi.

XULOSA

Modelning yana bir muhim jihati — u o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Model doirasida zaifroq o‘quvchilar uchun soddalashtirilgan mashqlar, kuchliroq o‘quvchilar uchun esa murakkab topshiriqlar taqdim etilishi mumkin. Shu tariqa har bir o‘quvchi fonetik kompetensiyani o‘z sur‘atida rivojlantiradi va jarayonda faol ishtirokchi bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, metodik model fonetik mashqlarni boshqa fanlar bilan integratsiyalash imkoniyatini ham yaratadi. Ona tili darsida fonemik tahlil mashqlari bajarilsa, musiqa darsida qo‘shiq aytish orqali intonatsiya mustahkamlanadi, teatr mashg‘ulotlarida esa real nutqiy vaziyatlarda talaffuzni mashq qilish amalga oshiriladi. Shunday qilib, fonetik kompetensiyani shakllantirish modeli nafaqat ona tili darsida, balki boshqa fanlar bilan ham uzviy aloqada bo‘lishi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azizov, A. (2020). Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Erkinova, M. Q. (2022). Boshlang‘ich sinflarda fonetika bo‘limini o‘qitish metodikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. G‘ulomova, Z. & Jo‘raeva, N. (2021). Tilshunoslik asoslari va uni o‘qitish metodikasi. Toshkent: Noshir.
4. Shodmonova, D. (2019). Boshlang‘ich ta‘limda nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. Samarqand: SamDU nashriyoti.

5. Mavlonova, R. (2020). Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish yo‘llari. Toshkent: Innovatsiya.
6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi (2023). Ona tili fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi (1–4-sinflar). Toshkent.
7. Nurmatova, G. (2021). Fonetik ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘yinli mashg‘ulotlarning roli. – Boshlang‘ich ta’lim jurnali, №4, 45–49.